



Jamila ASQAROVA,
O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi, f.f.d
E-manzil: jamilakhon@inbox.ru

Osiyo xalqaro universiteti professori, PhD M.Ro'ziyeva taqrizi asosida

O'ZBEK XALQ SEHRLI ERTAKLARIDAGI ISMLAR TAHLILIGA DOIR

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalq sehrlari ertaklaridagi kishi nomlari, atoqli va turdosh otlar, mifonimlar, zoonimlar va toponimlar tahlil qilingan. Sehrli ertak qahramonlarining ismlari, mifologik personajlar nomlari, sehrli buyumlar va joy nomlari hamda o'lchov birliklari tadqiq qilinib, ismning ertak matnidagi tutgan o'rni va uning ma'nolari, umuman olganda, ertak onomastikasi o'rganilgan.

Kalit so'zlar: folklor, ertak, qahramon, ism, nom, ot, mifonim, zoonim, toponim.

К АНАЛИЗУ ИМЕН В УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ВОЛШЕБНЫХ СКАЗКАХ

Аннотация

В статье анализируются личные имена, собственные и нарицательные имена, мифонимы, зоонимы и топонимы в узбекских народных сказках. Изучались имена сказочных героев, имена мифологических персонажей, магических предметов и топонимов, единицы измерения, изучалось место и значение имени в тексте сказки, а также в целом ономастика сказки.

Ключевые слова: фольклор, сказка, герой, имя, существительное, мифоним, зооним, топоним.

ON THE ANALYSIS OF NAMES IN UZBEK FOLK MAGICAL TALES

Annotation

The article analyzes personal names, proper and common nouns, mythonyms, zoonyms and toponyms in Uzbek folk tales. The names of fairy-tale heroes, names of mythological characters, magic objects and toponyms, units of measurement, the place and meaning of the name in the text of the tale, as well as the onomastics of the tale in general were studied.

Keywords: folklore, fairy tale, hero, name, noun, mythonym, zoonym, toponym.

Kirish. Ism inson hayotida ikki xil mohiyatda namoyon bo'ladi. Birinchisi, odamlar tomonidan tabiiy til vositasida namoyon bo'lsa, ikkinchisi, ilohiy mohiyatdir, chunki ilohiy qoidalarga ko'ra, narsalardan oldin ularning ismlari paydo bo'ladi. Kishilar ismida totemizm, animizm va fetishizm belgilarining mavjudligi qadimiy inonchlar bilan bog'liq. Xalq og'zaki ijodida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan ertakdagi so'zlar, ismlar, joy nomlari, o'lchov birliklarini o'rganish, uning badiiyatiga jo bo'lgan sirlarni o'rganish ushbu sohada yangi imkoniyatlar dunyosini ochadi.

Sehrlari ertaklarda onomastik birliklarni o'rganish e'tiborga molik masala bo'lib, u qahramonlar nomidan tashqari, hayvonlar, mifologik personajlar hamda makon nomlarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Zabardast folklorshunos H.Zarifov "folklor asarlarida tog'-u tosh, qir-u dala, joy nomlari, kishi ismlari, tarixiy shaxslar otlari ham alohida o'rin tutadi. Ba'zan bunday ism va nomlar doston yoki ertak syujetiga aloqasi yo'qdek tuyulishi mumkin. Shu sababli bunday holatlarda o'sha nomlarni matndan tushirib qoldirish yoki tarkibida shunday ismlar kelgan misralarni qisqartirish to'g'ri emas. Shunday qilish bilan tarixiy fakti yo'qotib yuborish mumkin" [7], deya haqli ta'kidlab o'tadi.

Aytish mumkinki, ertak personajlariga qo'yilgan "atoqli otlarga, avvalo, g'oya va milliylik singdirilgan bo'ladi. Bu xalq og'zaki ijodi namunalari keng tarqalgan usul bo'lib, odatda, ijobiy qahramonlar ismiga ijobiy, salbiy qahramonlar ismiga esa salbiy ma'no yuklanadi" [3].

Ertak qahramonlari nomi milliy tafakkurning, xalq turmush tarzining, orzu va istaklarining tarjimoni bo'lib, g'oyat rang-barangdir. Bu so'zlar nomlash vazifasidan tashqari, ism sohibiga munosabatni ham o'zida aks ettiradi.

Tilshunos olim A.Nurmonov shunday yozadi: "Badiiy adabiyotda qahramonlarning xarakteriga mos ism tanlashga harakat qilinadi. Masalan, "Tohir va Zuhro" dostonida Tohir – pokiza, nuqsonsiz; Zuhro – nurli, ko'rkam; niyati qora bo'lgan qahramonga esa Qorabotir deb ot qo'yiladi. Ko'rinadiki, ism insonning o'z zurriyodiga bo'lgan orzu-niyatining deyoqasi, badiiy asarlarda esa qahramon xarakteriga ishoradir. Demak, ismda gap ko'p. Ismning tilsimini ochish, ma'nolarini belgilab berish katta amaliy ahamiyatga ega"[8].

Ism inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, o'zining bir qator vazifalariga ega. Ism ikki xil mohiyatda namoyon bo'ladi. Birinchisi, odamlar tomonidan tabiiy til vositasida namoyon bo'lsa, ikkinchisi, ilohiy mohiyatdir, chunki narsalardan oldin ularning ismlari paydo bo'ladi. Tarixiy manbalarda kishilarga ism qo'yish tarixi totemizm, shomonlik, afsungarlik, ajdodlar e'tiqodi kabi qadimiy inonchlar bilan bog'liqligi ham aytilgan: "qadim zamonlardan bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Ismda taqdirga ishorat bor degan g'oya hanuzgacha yashab kelmoqda... Kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonilgan" [1].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot o'zbek xalq sehrlari ertaklarida qo'llanilgan ismlar – antroponimlar, mifonimlar, zoonimlar, toponimlar, etnonimlar kabi nomlash birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning semantik qatlamlarini yoritish va madaniy-ma'naviy konnotatsiyalarini izohlashga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

Deskriptiv (ta'rifiy) metod – ertak matnlarida uchraydigan ismlarni aniqlash, ularni lingvistik tasniflash, shakl va mazmun jihatidan tavsiflashda qo'llanildi.

Kontekstual tahlil – ismlarning matn doirasidagi vazifasi, ular orqali ifodalangan obraz, ijtimoiy yoki estetik ma'no kontekst asosida tahlil qilindi.

Etymologik tahlil – antroponim va mifonimlarning tarixiy ildizlari, etnik, diniy yoki afsonaviy manbalari aniqlanib, ularning lug'aviy kelib chiqishi tadqiq qilindi.

Lingvomadaniy yondashuv – har bir ism ortida turgan xalqning urf-odati, qadriyati, dunyoqarashi, diniy-tasavvufiy qarashlari, mifologik tasavvurlari aniqlashga xizmat qildi.

Qiyosiy tipologik tahlil – o'zbek sehrli ertaklaridagi nomlash birliklari boshqa turkiy xalqlar ertaklaridagi o'xshash ismlar bilan qiyoslanib, umumiy va milliy xususiyatlar aniqlab borildi.

- Tahlil va natijalar. Xalq ertaklarida ism qahramon haqida “gapiruvchi” belgi bo'lib, ko'p hollarda qahramon ismi ertak sarlavhasiga chiqqanini kuzatish mumkin. Sarlavha ertak strukturasidagi muhim belgi bo'lib, ertak haqidagi dastlabki ma'lumot uning nomida ko'rinadi. O'zbek ertaklari nomlarida belgilarning axborot berish vazifasi personajlarning ismi yoki laqabi: Pahlavon Rustam, Momir bilan Somir, Muqbil toshotar, Bulbuligo'yo, Qironog'a va hokazo; o'ziga xos (kasb-hunar, ijtimoiy mavqe, tashqi ko'rinish, ruhiy holat va hokazolarga oid) xususiyatga ega personaj nomlari: Shahzoda Asad, Malikai Husnobod, Ermana mergan, Shomurod qo'rqoq, Donishmand yigit, Aqlli qiz, Ola toyli bola, Kulol aka, Mahmud yamoqchi, Nurilla boyvachcha, Kambag'al qiz, Zar kokilli bola, No'xatvoy, Baxtli kal, Qora mushkul ot, Ilon og'a va hokazo; joy nomlari ishtiroki: Susambil; ertak atributlari nomlari: Gul uzuk, Uchar gilam, Oltin beshik, Oltin tarvuz va h.k; xatti-harakatlar ifodasi: Kulsa – gul, yig'lasa – dur; Ilonning ishi – zahar solish, Chip yopish, Ur, to'qmoq va boshqalar orqali namoyon bo'ladi. Kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, ertak sarlavhasiga syujetda o'zgarish yasagan qahramon, mifologik subyekt yo sehrli predmet nomi qo'yiladi. Aksariyat ertak nomlari qahramonlar ismidan iborat bo'lib, bunda ismda ifodalangan badiiy yuk ertakning umumiy mazmuniga aloqador bo'ladi.

Bundan tashqari, ertak qahramonlarining ismlari ularning funksiyasini ham aniqlab keladi: Muqbil toshotar, Karim botir, Guliqahqah, Qilich botir, Ermana mergan va hokazo. Shuningdek, qahramon nomlarida totemistik inonch-e'tiqod belgilari – Ayiqpolvon, Tuyayixon, Odamtoy, Devbachcha, jismoniy nuqson yoki kichiklik belgisi – Quloqboy, Gungila, Pufakvoy, Xurmacha polvon, Xamir botir, No'xatvoy kabilar uchraydi.

Ismlar milliy tafakkur, xalq turmush tarzi, orzu va istaklarining tarjimoni bo'lib, g'oyat rang-barangdir. Ismlar nomlash vazifasidan tashqari, o'z sohibiga munosabatni ham o'zida aks ettiradi. Kishi ismlarining sehrli ertaklarda qo'llanilishi faqatgina qahramonlarni nomlashga emas, balki ijodkor xalqning turli badiiy maqsadlarini ifodalashga ham xizmat qiladi. Ertakda ism ko'pincha personaj xarakteriga ishora qilib, qahramonlar ham, odatda, ismlarining mazmuniga mos harakatlanadi.

G'.Jalolov sehrli ertaklarda qahramonni nomlashni quyidagi holatlar bilan tasniflaydi:

- tug'ilish bilan bog'liq;
- qahramonning ichki va tashqi belgilari bilan bog'liq;
- qahramonning ijtimoiy hayoti va holatiga qarab nomlash [4].

O'zbek xalq sehrli ertaklari matnidan kelib chiqib kishi nomlarini, asosan, ikki katta guruh – atoqli va turdosh otlanga bo'lish mumkin. Atoqli otlar o'z navbatida kichik guruhlariga bo'linadi:

Odatiy ismlar:

- a) yigitlar ismi – Ernazar, Ahmadjon, Sherzod;
- b) qizlar ismi – Zulxumor, Zumrad, Jamila.

Bunday ismlar odatiy qo'yiladigan nomlar bo'lib, aksariyati bir marta qo'llanilib, boshqa ertaklarda qayta-qayta uchramaydi.

“Gapiruvchi” ismlar:

- A) yigitlar – Shamshirboz, tilla kokilli yigit;
- B) qizlar – Tirnog'i tilla qiz, Oltin qiz.

Bunday nomlar sehrli tug'ilish tipiga mansub qahramonlar orasida ko'p uchraydi, ism ularning magik xususiyatini bildiradi.

Laqablar – o'zbek xalq ertaklarida laqab personajlarning tashqi ko'rinishiga, bajaradigan funksiyasiga nisbatan qo'llaniladi. Laqablar hozirda salbiy ma'noda tushunilsa-da, qadimda kishilarning fe'l-atvori, ko'rinishi, kasb-kori ularning ismiga qo'shib aytilgan va uni tanib olish oson bo'lgan.

Ertaklarda turdosh nomdagi shaxs otlari ham ichki guruhlariga bo'linadi:

Qarindoshlikni bildiruvchi nomlar: chol-kampir, ota-ona, o'g'il, qiz, opa- uka, opa-singil, aka-uka, er-xotin, o'gay ona, o'gay qiz.

2. Mavqeni bildiruvchi nomlar: podsho, malika, shahzoda, savdogar...

3. Kasb-korni bildiruvchi nomlar: o'tinchi, podachi, ovchi...

Antroponimlar. O'zbek ismlarining juda katta boyligini bir joyga to'plab, ma'nosini izohlab berish orqali kelajak avlodga arzigulik ma'naviy meros qoldirgan tilshunos olim E.Begmatovning quyidagi fikrlarini muhim ahamiyatga ega: “Ismlarning asosiy lisoniy-kommunikativ vazifasi har bir shaxsni yakka atash orqali uni boshqa shaxslardan farqlash, ajratishga xizmat qilishdan iborat. E'tibor berib qaralsa, hech bir ism shunchaki tanlanib bolaga qo'yilmaydi. Har qanday ism berilishi zamirida ota-onalarning biror maqsad, orzu-umidlari, farzandining sog'ligi, kelajagi, istiqbolini ko'zlagan ezgu niyatlar yotadi. Mana shu niyatlar bolaga ism tanlash va berish uchun asos (motiv) vazifasini o'taydi” [2]. Darhaqiqat, ismda ikki xil mohiyat mavjudligini kuzatish mumkin:

1. Ijtimoiy til talabi bo'lib, buni ota-ona, bobo-buvi, umuman kishilar niyati, orzu-armonlari zamirida rejalashtiriladi.

2. Ilohiy mohiyat bo'lib, u taqdirning ismda aks etishida ko'rinadi. Ismda yo'nalish, prinsip, boshlanish mavjud bo'lib, u bevosita “ong osti”mizda rivojlanadi.

“Qahramon” ertagida yigitning ismi Qahramon bo'lib, uning kuch-qudrati va botirlik xususiyatlari ismda aks etadi. “Er” so'zi bilan yasalgan ismlar botir, qo'rqmas ma'nolarida keladi. Erkenja, Ernazar, Erkajon, Ermana mergan ismi tarkibidagi “er” leksemi bo'yicha fikrlarni X.Zarif tadqiqotlarida uchratish mumkin: “Ar” // “er” so'zlari ko'hna yozma obidalarda “aran” // “eran” leksemalari ham ishlatilgan. Bu so'z Mahmud Koshg'ariy “Devon”idagi “eran bila nayzashdi” iborasida mavjuddir. XII asrda yashab ijod qilgan alloma Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarida forscha “mard” so'zining “er”, “mardon” so'zining esa “eran” singari o'zbekcha muqobillari berilgan” [5].

Qilichbotir, Qilichqora, Shamshirboz kabi ismlar qahramonlarning muayyan xususiyatiga ishora qiladi. Nomshunos olim E.Begmatov fikricha, ko'pgina olimlar bunday ismlarni qilich kulti bilan bog'laydi: “O'zbek tilida Omonqilich, Qilicharslon ismlari bor. Olimlardan Xautsma Qilicharslon ismi tarkibidagi Qilich so'zini qadimda xunlar orasida tarqalgan “qilich kulti” bilan bog'lagan va qilich hamda arslon so'zlarini shaxsning ota va onasi totemiga ishora qiladi deb taxmin qilgan” [3].

Bundan tashqari, sehrli ertaklarda yigit qahramonlarning ismlari ba'zan bir-biri bilan “uyqash” bo'lib kelishi kuzatiladi. “Ernazar bilan Kimyonazar” ertagida bir podshoning uch o'g'li bo'lib, “to'ng'ich o'g'lining oti Pirnazar, o'rtancha o'g'lining oti Xo'janazar, kenja o'g'lining

oti Ernazar ekan”, “To‘qliboy” ertagida aka-ukalarning ismlari Qo‘ldosh va Yo‘ldoshdir va bunday “qofiyadosh” ismlar hozir ham odatda bir oilaga mansub bolalarga beriladi. Bizning nazarimizda, bu kabi ohangdosh ismlarning tanlanishida oiladagi farzandlarni o‘zaro jipslashtirish, ularning bir oilaga mansubligini ta’kidlash ko‘zda tutilgan.

Laqablar. Ertaklar onomastikasida laqablar asosiy nomlarga qo‘shimcha ma’no beruvchi, obrazni yaqqolroq ifodalovchi birliklardir. Kishilarga laqab qo‘yish keng tarqalgan odat bo‘lib, ularning paydo bo‘lishini o‘z sababi bor. Ular shaxsning nasl-nasabi, tashqi ko‘rinishi, xarakteri, kasb-kori kabi ko‘plab xususiyatlarni qamrab oladi. O‘zbek xalq shahri ertaklarida bir xil nomga ega bo‘lgan bir nechta kishini ajratish uchun ularga xususiyatlaridan kelib chiqib laqab berilgan. “Laqab o‘z egasining biror jismoniy, aqliy, ruhiy iste’dodi va kasbi, odamlar orasida o‘zini tutishi, biror ijobiy yoki g‘ayritabiiy harakatiga ishora qiladi.

- Laqab ism kabi qadimiydir;
- laqab shaxsga hazil-mutoyiba qilib berilgan nomdir;
- laqab shaxsning norasmiy nomidir. U ko‘proq xalq tilida, lahja va shevalarda yashaydi;
- ko‘pgina laqablarning motivativ asosi ko‘proq tor doirada ma’lum bo‘ladi (oila a‘zolari, kichik jamoa doirasi, laqabni qo‘ygan shaxs va boshqalar);
- laqab familiya va ota ism udum bo‘lgunga qadar ular vazifasini bajargan” [3].

Folklorshunos K.Imomovning fikricha, ertak personajlari alohida nom bilan atalmay, biror belgi yoki laqab bilan chaqirilgan. Olimning ta’kidlashicha, asl ismni sir tutish magik afsun, animistik tushuncha bilan bog‘liq yovuz kuchlardan saqlanish niyatidan kelib chiqqan [6].

Tilshunos E.Begmatov laqabga turli mualliflar bergan izohlarni umumlashtirib, laqabni ta’riflashda bir qator xarakterli xususiyatlarni hisobga olish kerakligini ta’kidlaydi. Jumladan, “laqab o‘z egasining biror jismoniy fazilati yoki nuqsi, aqliy iste’dodi va kasbi, odamlar orasida o‘zini tutishi, biror ijobiy yoki g‘ayritabiiy harakatiga ishora qiladi; laqab ko‘proq xalq tilida, lahja va shevalarda yashaydi; ko‘pgina laqablarning motivativ asosi ko‘proq tor doirada ma’lum bo‘ladi (oila a‘zolari, kichik jamoa doirasi, laqabni qo‘ygan shaxs va boshqalar)” kabi fikrlari asoslidir [3]. O‘zbek xalq ertaklarida “kal” so‘zi qahramon ismi emas, balki qadimgi tabu zahirida yuzaga kelgan, keng tarqalgan laqablardan biridir.

Turdosh nomlar. O‘zbek xalq shahri ertaklarida turdosh nomlar ko‘plab uchraydi. Chol, kampir, bobo, otalar odatda ismsiz keladi. Ismi yo‘q personajlar ko‘pincha aniqlovchi+ot ko‘rinishida keladi. Masalan, yalmog‘iz kampir, maston kampir, o‘gay ona, shahri kampir, oqsoqolli chol.

Shuningdek, ertakda qarilik belgilari uning poetik tasviridan ham anglashiladi: sochlari oq, tishlari tushgan, munkillagan, bukri va hokazo.

O‘zbek xalq shahri ertaklarida barcha qahramonlar ham o‘z ismiga ega emas, masalan, kenja botir, shahzoda, yigit kabi turdosh nomlar ularning barcha davrlar va davralar uchun yashovchanligini, moslashuvchanligini ta’minlagan.

Mifonimlar. Xayoliy, afsonaviy nomlar onomastik ko‘lamga kiruvchi barcha atoqli ot guruhlar tarkibida uchraydi. Nomning mifonim deb yuritilishiga sabab – unda ifodalangan narsa, obyektning real mavjudlikka emas, balki xayolga, tasavvurga, farazga asoslanganligidir. Demak, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Shahri ertaklarda mifonimlar, asosan parilar, devlar, yalmog‘iz va ko‘makchi personajlar nomlarida uchraydi.

Zoonimlar – hayvonlarga qo‘yilgan maxsus nom – atoqli otlar bo‘lib, bunday nomlar qatoriga tarixiy afsonalarda, folklor asarlarida uchrovchi otlar, badiiy obraz rolini o‘ynovchi boshqa xil yaxshiy mavjudotlar (ajdaholar, timsol, yo‘lbars va boshqalar)ning atoqli otlarini ham kiritish mumkin.

Toponimlar. Shahri ertaklarda toponimlarni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

Real toponimlar. Ular ertakda qo‘llaniladigan hayotda mavjud obyekt nomlari bo‘lib, ular ertakchi tomonidan tinglovchilarga ertak voqealariga bo‘lgan ishonch va estetik zavq berish maqsadida qo‘llanilib, ko‘pincha ijrochilar o‘zlari mansub joy nomlaridan foydalanadilar.

To‘qima toponimlar. Bunday toponimlar ertakning makoniy ko‘lamini abstraksiyalash maqsadida qo‘llanadi. Makon bilan bog‘liq sirlik, mavhumlikni bo‘rttirib ifodalashga xizmat qiladi. Jambil, Susambil, Ko‘hi Qof, Borsa kelmas, Borsa xatar, Borsa kelar, Bog‘i Eram kabi joy nomlarini to‘qima toponimlar tarkibida o‘rganish mumkin.

- **Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytish mumkinki, xalqda “Ellik yilda el o‘zgarar, to‘qson yilda til o‘zgarar” degan maqol bor. Xalqning idroki o‘zib borar ekan, vaqt o‘tgan sari muomaladagi so‘zlar, nomlar ham eskiradi, tushunarsiz holatga kelib, o‘zining ommaviyligini yo‘qotadi. Boshqa sohalar kabi til ham taraqqiy qiladi. Zero, so‘z tovushlarini orttirib, cho‘zib, ma’nolarini siljitib rivojlanib boradi. Vaqt bir joyda to‘xtab qolmagani kabi til ham u bilan birga doimiy harakatda bo‘ladi.

O‘zbek xalq shahri ertaklaridagi obrazlar va shahri buyumlar mohiyatida animistik, totemistik va magik tasavvurlar, suv, olov, tosh va o‘simlik kultlariga bo‘lgan ishonchning mavjudligi uning hayotiy voqelikni oddiy bayoni emas, balki badiiy qayta ishlangan shakli ekanidan darak beradi.

ADABIYOTLAR

1. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 77.
2. Бегматов Э. Исmlарнинг сирли олами. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – Б. 3.
3. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 9.
4. Жалолов Ф. Ўзбек халқ эртakлари поэтикаси. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 71.
5. Зарифов Х. Аршак – шақ қахрамони / Ўзбек фольклоршунослиги. Антология. – Тошкент: О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – Б. 45.
6. Имомов К. Ўзбек халқ прозаси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 16.
7. Мирзаев Т. Ҳоди Зариф суҳбатлари. – Тошкент: Shams-asa, 2013. – Б. 157.
8. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдли. III жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 286.